

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUL, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-222-0

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 10-iyul

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-222-0

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

G`ulomov Ibrohim

MANG`IT NA`MOYONIDAN OLINGAN NIOBIY VA TANTAL SAQLAGAN MA`DANLARNI

BOYITISH.....4-10

TARIX FANLARI

Xolova Umida, Jalolova Zarina

MA`RIFATPARVARLIK RUHI VA AYOL OBRAZINING YUKSALISHI: DILSHODI BARNO

NIGOHIDA 11-14

Sobirov Sardorbek

YETTISHAHAR DAVLATI ASOSCHISI YOQUBBEK BADAFLAT FAOLIYATIGA

BIR NAZAR..... 15-19

FALSAFA FANLARI

Mamadiyarova Malika

OILAVIY QADRIYATLARNING AXLOQIY XUSUSIYATI 20-22

FILOLOGIYA FANLARI

Xudoynazarova O`g`lonoy

TIBBIY DISKURDA DINIY BARQAROR BIRIKMALAR 23-25

Abdukaxarova Gulnoza

O`ZBEK TILIDA IQTISODIY ANGLISIZMLARNING SHAKLLANISHIGA TA`SIR

ETUVCHI OMILLAR 26-28

Mustafayev Ozod

O`ZBEKISTONDA "RAQAMLI (INTERAKTIV) ADABIYOT" MUHITINING SHAKLLANISHI VA

ADABIY ASARLARNING ONLAYN PLATFORMALARDAGI EVOLUTSIYASI 29-32

YURIDIK FANLARI

Allamberganova Farida

ISTE`MOLCHI HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA ROMAN-GERMAN VA ANGLO-SAKSON

HUQUQIY TIZIMLARIDAGI O`ZIGA XOS XUSUSIYATLAR 33-40

PEDAGOGIKA FANLARI

Rasulov Erkin

KOGNITIV HAMDA METAKOGNITIV FAOLIYATLAR O`RTASIDAGI BOG`LIQLIK VA ULARNI

RIVOJLANTIRISH USULLARI 41-45

PSIXOLOGIYA FANLARI

Smetova Gulzar

TIBBIYOT XODIMI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI..... 46-48

YETTISHAHAR DAVLATI ASOSCHISI YOQUBBEK BADAHLAT FAOLIYATIGA BIR NAZAR

Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li

Andijon davlat universiteti "Jahon tarixi" kafedrası o'qituvchisi

Email: sobirov88@adu.uz

Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkistonda yuzaga kelgan Yettishahar davlati asoschisi Muhammad Yoqubbek Badavlatning siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi va tashqi siyosati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Yoqubbekning Qo'qon xonligidagi xizmatidan boshlab, Qoshg'ar va unga yondosh shaharlar ustidan nazoratni qo'lga kiritishi, shuningdek, Rossiya, Buyuk Britaniya va Usmonli imperiyasi bilan olib borgan diplomatik aloqalari tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Xususan, Kaulbars, Kuropatkin, Boulger va Sayrami kabi mualliflarning asarlari hamda zamonaviy tadqiqotchilarning ishlari asosida Yoqubbekning harbiy-siyosiy strategiyasi, ichki siyosati va xalqaro huquqiy maqomi tahlil etiladi. Maqola yakunida Yettishahar davlatining yemirilishiga sabab bo'lgan omillar, shuningdek, Yoqubbek shaxsiyatining tarixiy o'rni baholanadi.

Kalit so'zlar: Yettishahar davlati, Muhammad Yoqubbek, Sharqiy Turkiston, diplomatik aloqalar, Rossiya imperiyasi, Buyuk Britaniya imperiyasi, Usmonli imperiyasi, mustaqillik harakati, XIX asr geopolitikasi, harbiy-siyosiy strategiya.

AN OVERVIEW OF THE ACTIVITIES OF YAKUB BEG BADAHLAT, FOUNDER OF THE YETTISHAR STATE

Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li

Lecturer at the Department of World History, Andijan State University

Annotation. This article analyzes the political activities, governance, and foreign policy of Muhammad Yakub Beg Badavlat, the founder of the Yettishahar state that emerged in Eastern Turkestan in the second half of the 19th century. The study explores Yakub Beg's service in the Kokand Khanate, his consolidation of control over Kashgar and surrounding cities, and his diplomatic relations with the Russian Empire, the British Empire, and the Ottoman Empire, based on historical sources. In particular, the works of authors such as Kaulbars, Kuropatkin, Boulger, and Sayrami, as well as those of modern researchers, are used to examine Yaqubbek's military-political strategy, domestic policy, and international legal status. The article concludes with an evaluation of the factors that led to the collapse of the Yettishahar state and the historical significance of Yaqubbek's legacy.

Key words: Yettishahar State, Muhammad Yaqubbek, Eastern Turkestan, diplomatic relations, Russian Empire, British Empire, Ottoman Empire, independence movement, 19th-century geopolitics, military-political strategy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-222-0/uzb-03>

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyoda geosiyosiy keskinlik va tarixiy siljishlar davri bo'ldi. Ayniqsa, Sharqiy Turkiston hududida yuzaga kelgan Yettishahar davlati bu davrda xalqaro e'tibor markaziga aylandi. Ushbu davlatning asoschisi bo'lgan Muhammad Yoqubbek nafaqat harbiy salohiyatga, balki siyosiy vaziyatni anglab, diplomatik muvozanatni yaratish qobiliyatiga ega rahbar sifatida tarix sahnasiga chiqqan edi [7; B.45.]. Yettishahar davlati, asosan, Sin imperiyasiga qarshi qo'zg'olon natijasida tashkil topgan bo'lib, Yoqubbek bu harakatni harbiy va siyosiy jihatdan birlashtira olgan shaxs sifatida tarixda o'z nomini qoldirgan. Tarixchi Mullo Muso Sayrami ham bu davr voqealarini o'zining "Tarix-i Hamidi" asarida yoritib, Yoqubbekning hukmronlik faoliyatini sinchkovlik bilan tasvirlab bergan [11; B. 148–152.]. Bu maqolada Yettishahar davlatining tashkil topish jarayoni, Yoqubbekning siyosiy va harbiy faoliyati, uning hukmronlik mafkurasi hamda ichki va tashqi siyosatdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Yoqubbekning Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari bilan olib borgan

diplomatik aloqalari, ichki islohotlari va davlat boshqaruv uslubiga ham e'tibor qaratiladi [9; B. 120–122].

MATERIAL VA TAHLIL USULLARI

Ushbu maqola yozilishida XIX asrda Sharqiy Turkistonda yuz bergan voqealarni yorituvchi tarixiy hujjatlar, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va ishonchli birlamchi manbalar tahlil qilindi. Asosiy manbalar sifatida Muhammad Yoqubbek hayoti va siyosiy faoliyati haqida yozilgan quyidagi tarixiy asarlarga tayandik: D.C. Boulgerning "The Life of Yakoob Beg", H. Kimning "Holy War in China", James Millvardning "Eurasian Crossroads", A.N. Kuropatkinning "Kashgariya" asari hamda M. Sayramiy tomonidan yozilgan va Erik Schluessel tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan "Tarikh-i Hamidi" asari. Shuningdek, o'zbek, rus tarixchilari (Xalfin N.A., Isiyev D.A., Xo'jayev A., Qo'ldoshev Sh.) tomonidan yozilgan asarlar Yettishahar davlatining tashqi aloqalari va ichki siyosiy tuzilishini ochib berishda muhim manba bo'lib xizmat qildi. Maqolani tahlilida obyektivlik, qiyosiy tahlil, tarixiy-xronologik, analiz va sintez kabi usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixida shunday siymolar borki, ular o'z zamonida ko'rsatgan xizmatlari bilan el hotirasida naqshlanib qolganlar. Tarixda o'chmas iz qoldirgan mana shunday siymolardan biri – Muhammad Yoqubbek Badavlat (1820–1877)dir. U Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy Xalq Respublikasi (asosan Sharqiy Turkiston) hududida katta harbiy tashkilotchilik ishlarini olib borgan sarkarda va davlat arbobi sifatida mashhur bo'lgan. U manbalarda "Muhammad Yoqubbek", "Yoqubbek Badavlat", "O'taliq G'oziy", "Qushbegi", "Amir" nomlar bilan qayd etilgan. Muhammad Yoqubbek taxminan 1820-yilda Qo'qon xonligi ma'muriy markazlardan biri – Pskent qal'asida tavallud topgan. (5; B.4-7.).

Yoqubbek Badavlatning Qo'qon xonligidagi faoliyati uning harbiy va siyosiy yetakchilik salohiyatini namoyon etdi. Yoqubbek Badavlat otasidan yetim qolganidan so'ng, uni amakisi Shayx Nizomiddin tarbiyasiga oladi, keyinroq qo'mondon Gadoy Muhammad xizmatiga kiradi. Shu tariqa Qo'qon xonligida kichik harbiy lavozimlarda o'z faoliyatini boshladi. Ayni paytda, Muhammad Yoqubbekning amakisi Nizomiddin Pskentdan Toshkentga qozi lavozimiga o'tkazilgan. Muhammad Yoqubbekning harbiy mahorati, jasoratlari uchun Xudoyorxonning xos soqchisi darajasigacha ko'tarilib borgan, 1847-yilda Chinoz begi, 1849-yilda Avliyoota hokimi bo'lgan. Bulardan tashqari, Yoqubbek Oqmasjidni ham boshqargan(5; B.16.). Bu davrdagi siyosiy tajriba keyinchalik Yettishahar davlatini tashkil etishida muhim asos bo'ldi.

Yettishahar (Qoshg'ar, Yorkend, Ho'tan, Oqsu, Uch Turfon, Kucha, Ko'rla) hududlarida yuzaga kelgan siyosiy bo'shliqdan foydalangan holda, Yoqubbek qisqa muddat ichida o'z hukmronligini o'rnatdi. U o'zini "Badavlat O'taliq G'oziy" deb e'lon qilgan va mustaqil davlat qurish yo'lida qat'iy siyosiy choralar ko'rgan (11. B.188–190.). Yoqubbek davlatining tashkil topishi, asosan, Sin imperiyasidagi ichki zaifliklar (Taypin va Dungan qo'zg'olonlari), mintaqadagi kuch bo'shlig'i va mahalliy aholining noroziligi fonida kechgan. Bu holat unga qisqa muddatda ijtimoiy va harbiy jihatdan mustahkam davlat tuzishga imkon berdi (8; B.81–84.). Yoqubbekning tashqi siyosatidagi muhim yo'nalishlardan biri Buyuk Britaniya imperiyasi bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yish bo'ldi. U Britaniyani potensial harbiy va siyosiy ittifoqchi sifatida ko'rgan va ayniqsa Rossiya imperiyasi ta'siriga qarshi muvozanat yaratish istagida bo'lgan [10; B.380.]. 1870-yillarning boshlarida Buyuk Britaniya Hindiston general-

gubernatorining topshirig'i bilan Yettishaharni kuzatish maqsadida qator razvedka agentlarini, jumladan panditlar va savdogar ko'rinishidagi elchilarni Qoshg'arga yubordi. Ular orasida T.D. Forsayt va R.Shou kabi elchilar muhim rol o'ynadi [7; B.270.]. Britaniya vakillari Yettishaharni Rossiya imperiyasiga qarshi potentsial bufer davlat sifatida ko'rib chiqdi. Ammo Yoqubbek tomonidan taklif etilgan harbiy ittifoq va rasmiy tan olinuvchilik masalalari London tomonidan ehtiyotkorlik bilan rad etildi. Britaniya hukumatining asosiy tashvishi – Sin imperiyasi bilan ziddiyatga borishni istamasligi edi [9; B.129.]. Biroq Britaniyaning iqtisodiy manfaatlari saqlanib qoldi – Forsayt missiyasi yakunida imzolangan savdo shartnomasi ingliz tovarlari uchun Qoshg'arga kirish imkonini ochdi. Bu esa Yettishahar iqtisodiyotiga qisqa muddatli foyda keltirdi, ammo uzoq muddatli siyosiy himoya va tan olishni keltira olmadi [8; B.145.]. Shunday qilib, Yoqubbek tomonidan Buyuk Britaniya bilan o'rnatilgan aloqalar uning tashqi siyosiy strategiyasida markaziy o'rin tutgan bo'lsa-da, bu munosabatlar real harbiy yordam va suverenlikni tan olishga olib kelmadi.

Yoqubbek tashqi siyosatida faqat Britaniya bilan emas, balki Rossiya imperiyasi va Usmonli imperiyasi bilan ham faol aloqalar o'rnatishga harakat qildi [6; B.47.]. Ayniqsa Rossiya bilan munosabatlar ancha murakkab va ehtiyotkorlik bilan olib borilgan bo'lib, Yettishahar davlati geosiyosiy jihatdan ikki imperiya – Rossiya va Sin orasidagi bufer hudud sifatida o'z o'rnini topishga intilgan.

Rossiya imperiyasi 1871-yilda Ili vodiysini egallagach, Sharqiy Turkiston voqealariga bevosita aralasha boshladi [3; B.196–198.]. 1872-yilda Kaulbars boshchiligidagi diplomatik missiya Qoshg'arga yuborilib, Yoqubbek bilan rasmiy uchrashuvlar o'tkazildi. Bu missiyada savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlash va ikki tomonlama aloqalarni rasmiylashtirish masalalari ko'rib chiqildi [1; B.32–35.]. Shuningdek, 1873-yilda Yoqubbek tomonidan yuborilgan Mulla Turob Ho'ja boshchiligidagi elchilik Rossiyaga safar uyushtirdi. Elchilikdan ko'zlangan asosiy maqsad – Rossiyadan harbiy va siyosiy ko'mak olish edi. Ammo Rossiya bu murojaatlarga sovuqqonlik bilan munosabat bildirdi, chunki u Sin bilan ochiq to'qnashuvga kirishishni istamas edi [4; B.65–68.]. 1876-yilda general Kuropatkin Yettishahar hududiga razvedka maqsadida yuborildi. Uning hisobotlarida Yoqubbek davlati ichki jihatdan zaif ekani, harbiy jihatdan Sin bosqiniga dosh bera olmasligi alohida qayd etilgan [2; B.178–184.]. Bu esa Rossiya hukumatining Yettishaharga nisbatan faqat diplomatik aloqalarni saqlashga intilgan ehtiyotkor siyosatini mustahkamladi.

Boshqa tomondan, Yoqubbek din birligi jihatidan o'zini sunniy musulmon olamining bir qismi sifatida Usmoni davlati bilan aloqa o'rnatishga intildi. Dastlab Yoqubbek Usmonli imperiyasi bilan aloqa o'rnatishga qiziqish bildirmagan bo'lsa-da, keyinchalik Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya imperiyasidan har jihatdan yordam olish imkoniyatlari chegaralanganini hisobga olib, o'z rejalarini o'zgartirdi. 1871-yilda Yoqubbek o'z davlati uchun Rossiyadan kelayotgan xavfni birinchi marta aniq his qildi. Aynan o'sha yili Rossiya G'uljani o'z tasarrufiga oldi. Yoqubbekning o'z pozitsiyasini o'zgartirishiga sabab bo'lgan yana bir omil Usmonli imperiyasidan harbiy maslahatchilar va qurol-yarog' ta'minoti shaklida moddiy yordam olish imkoniyati edi. Sin sulolasi bilan kelajakdagi qarama-qarshilikka tayyorgarlik ko'rish uchun o'z armiyasini zamonaviy qurollar, miltiq va to'plar bilan ta'minlashi zarur edi. U ushbu qurollarni qo'lga kiritish uchun tinimsiz harakat qilgan bo'lsa-da, bu urinishlar amaliy jihatdan yetarli natija bermadi. Britaniyadan katta hajmdagi importni kutish qiyin edi, chunki

ular Rossiyaning salbiy munosabatidan cho'chib, harbiy jihozlarni ochiq yetkazib bera olmasdi. Ruslar esa uning davlatiga nisbatan dushmanlik munosabatidan voz kechmagan edilar. Yoqubbek Afg'oniston yoki Hindistondagi xususiy savdogarlar kabi boshqa manbalarni ham sinab ko'rdi, lekin import hajmi uning ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emas edi. Shu nuqtayi nazardan Usmonli imperiyasi qurollarni olish uchun yaxshi muqobil manba bo'lishi mumkin edi [12; B.40]. U Istanbulga elchi yuborib, o'zini "Qoshg'ar amiri" sifatida tan oldirishga va Usmonli sultoni tomonidan siyosiy-harbiy ko'mak olishga harakat qildi [11; B.256.]. Biroq, Usmonli davlati ham muntazam harbiy yoki moliyaviy yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmadi. Bunga rus-turk urushi va Sin imperiyasining qayta hujumi sabab bo'ldi. Shunday qilib, Rossiya va Usmonli imperiyalari bilan olib borilgan diplomatik sa'y-harakatlar ma'lum darajada aloqalarni o'rnatishga xizmat qilgan bo'lsa-da, ular Yettishaharga real harbiy yoki siyosiy kafolatlar bera olmadi. Bu holat Yoqubbekning xalqaro sahnada o'z davlatini tan oldirish va siyosiy cheklovlardan chiqishga qaratilgan sa'y-harakatlari kutilgan natijani bermaganidan dalolat beradi, u tashqi siyosiy ittifoqchilar orqali suveren maqomga erishmoqchi bo'lgan bo'lsa-da, bu urinishlar amalda samarali natijaga olib kelmadi.

XULOSA

Muhammad Yoqubbek – XIX asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkiston tarixida o'zining irodasi, harbiy salohiyati va siyosiy etikasi bilan ajralib turgan yirik shaxslardan biridir. U Sin imperiyasi hukmronligiga qarshi turib, Yettishahar davlatini barpo etdi va uni mustaqil siyosiy kuch sifatida tanitishga harakat qildi. Yoqubbek qisqa fursatda muhim ma'muriy islohotlar o'tkazdi, moliyaviy tizimni yo'lga qo'ydi, mustaqil diplomatik yo'nalishda Rossiya, Britaniya va Usmonli imperiyalari bilan aloqalarni yo'lga qo'ydi.

Biroq bu sa'y-harakatlar real harbiy yordam bilan mustahkamlanmadi. Britaniya imperiyasi uni tan olmadi, Rossiya esa Sin bilan to'qnashuvdan qochdi. Usmonli sultoni tomonidan berilgan ma'naviy ko'mak esa siyosiy va harbiy darajada samara bermadi. Shu bois, Yoqubbekning diplomatik tashabbuslari nihoyasiga yetmadi va Sin imperiyasining harbiy yurishi natijasida Yettishahar davlati quladi.

Yoqubbek tarix sahnasida nafaqat mohir harbiy sarkarda, balki mustaqillik uchun kurash olib borgan siyosiy arbob sifatida ham muhim o'rin egallaydi. U XIX asrning murakkab va tahlikali geosiyosiy sharoitida – yirik imperiyalar manfaatlari to'qnashgan Sharqiy Turkistonda – o'z davlatchiligini saqlab qolish, xalqining siyosiy erkinligi va mustaqilligini ta'minlash yo'lida qat'iyat bilan harakat qilgan. Shu sababli, Yoqubbek nafaqat o'z davrining rahbari, balki tarixda milliy mustaqillik uchun kurash ramziga aylangan shaxsdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Каулбарс А. В. Поездка в Кашгарию: С западного берега Иссык-Куля через Терской-Ала-Тоо, Турфан и Кулджу. – СПб.: Тип. В. С. Балашева, 1873. – 94 с.
2. Куропаткин А. Н. Кашгария: Историко-географический очерк страны, ее военные силы, промышленность и торговля. – СПб.: Тип. В. С. Балашева, 1879. – 435 с.
3. Халфин Н. А. Английская колониальная политика на Среднем Востоке. – Ташкент: САГУ, 1957. – 256 с.
4. Исиев Д. А. Уйгурское государство Еттишар (1864–1877). – М.: Наука, 1981. – 91 с.

5. Ходжаев А., Қўлдошев Ш. Муҳаммад Ёқуббек. – Т.: Наврўз, 2021. – 112 б.
6. Эгамбердиев И. Англия ва Россиянинг Марказий Осиёда мустамлакачилик сиёсатидаги рақобатлари. – Т.: Камалак, 2018. – 120 б.
7. Boulger D. C. The Life of Yakoob-Beg: Athalik Ghazi and Badaulet, Ameer of Kashgar. – London: W. H. Allen & Co., 1878. – 332 p.
8. Kim H. Holy War in China: The Muslim Rebellion and State in Chinese Central Asia, 1864–1877. – Stanford: Stanford University Press, 2004. – 364 p.
9. Millward J. A. Eurasian Crossroads: A History of Xinjiang. – London: Hurst & Company, 2007. – 352 p.
10. Hopkirk P. The Great Game: On Secret Service in High Asia. – London: John Murray, 1990. – 565 p.
11. Sayrami M. The Tarikh-i Ҳамиди: A Late-Sin Uyghur History / Trans. by Eric Schluessel. – New York: Columbia University Press, 2023. – 452 p.
12. Sobirov S. Ilmiy xabarnoma Seriya: Gumanitar tadqiqotlar // «Innovatsiya-Ziyo» MCHJ. – Toshkent, 2024. – №7(83). – B. 37-45.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 10-iyul

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 10-iyul

ISBN 978-9910-09-222-0

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.